

## ULUG‘BEK HAMDAM HIKOYALARNING TIL XUSUSIYATLARI

**Hilola Norova**

*BuxDU filologiya fakulteti*

*2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdam hikoyalarining til xususiyatlari, poetik xususiyatlari, tasvir vositalari va usuli, ijodiy mahorati haqida so‘z boradi.*

**Tayanch so‘zlar:** *hikoya, Ulug‘bek Hamdam, mahorat, monolog, o‘xshatish, g‘oya, individuallik, ramziylik, poetik xususiyat.*

### **Kirish.**

Badiiy asar tili badiiy asar mazmunini yuzaga chiqaruvchi, muallifning g‘oyaviy-badiiy maqsadini o‘quvchiga yetkazuvchi vosita bo‘lib, ijodkor mahorati va poetik individualligini yorqin ko‘rsatuvchi unsunlardan biridir. Badiiy asar san‘at asari bo‘lganligi uchun uning eng birinchi xususiyati emotsional til hisoblanadi.

### **Tadqiqot materiallari va metodologiyasi**

Ulug‘bek Hamdam o‘z qahramonlarining kechinmalari girdobiga kitobxonni shunchalik tortib ketadiki, kitobxon qahramon hissiyotlarini birgalikda kechira boshlaydi, kitobxonda g‘azab hissi, pafos, kulgi paydo bo‘ladi. Insonda biron xil kayfiyat tug‘dirish san‘atining eng sehirli xususiyatlaridan biridir.

Ulug‘bek Hamdam asarlarini o‘qiganda ham kitobxon qahramon bilan birgalikda bir qancha hislarni boshdan kechiradi. Xususan, bu “To‘lin oy qissasi” to‘plamida yorqinroq namoyon bo‘lgan. Biz yuqoridagi fasllarda tahlilga tortganimiz ushbu to‘plamning tili xususida gapirganimizda, asarning tili davr nuqtayi nazaridan bir muncha soddaroq, kitobxon uchun tushunarli ekanligi haqida fikr yuritgan edik. Ammo asarda shunday ohori to‘kilmagan tashbehlardan, maqol, ibora, o‘xshatishlar, antonim va takror so‘zlardan foydalanilganki, bu asarning badiiy qimmatini yanada oshirishga xizmat qilib, asar o‘qishligini ta‘minlagan.

### **Tadqiqot natijalari va muhokama**

Masalan, bir o‘rinda bir necha o‘xshatishlarni ko‘rishimiz mumkin: “Ey, saxiy quyosh va ey, kechalari boshimiz uzra porlab turguvchi beminnat oyu yulduzlar!”. Bu o‘rindagi “saxiy quyosh”, “beminnat oy” kabi so‘zlardan ijodkor bir necha tashbehlarini yarata olgan<sup>64</sup>.

Kitobxon ko‘z o‘ngida hikoyani go‘yo jonli tarzda namoyon qilgandek obrazli tasvirlashi poetik til xususiyatlaridan birini ochganligidan dalolatdir. Yozuvchi poetik til orqali obrazlarni, manzara va holatlarni tanlashda, albatta, so‘z kuchiga tayanadi. So‘z o‘yinlari, iboralar, ko‘chma ma’noli so‘zlar, arxaizmlar, umumxalq tilining gap qurilishi usullaridan Ulug‘bek Hamdam hikoyalari mazmuniga mos tanlashi hikoyalar salmog‘ini yanada oshirdi. Masalan, hikoyalarda ko‘chma ma’noli so‘zlarga e’tiborni qaratsak: “- Taksida

<sup>64</sup> Хамдам У. Тўлин ой қиссаси. – Тошкент: О‘zbekiston, 2017. – Б. 28.

ketasiz. Shoshmay turing, hozir o‘zim mashina tutib o‘tqizvoraman. Sayyora, unuting endi avtobusga osilgan vaqtlaringizni! Endi faqat yengil mashinada yurasiz”<sup>65</sup>. “Dilyora” hikoyasidagi Abdulla obrazi ayolini qadrlaydigan, zamon bilan hamnafas, Dilyoraga “ko‘zgu” bo‘lgan obrazdir. Bu parchadagi “osilmay “so‘zi salbiy ma’no kasb etib, doim aavtobusda yurmaslikni, undan yengil mashina afzalligi va mashinada minmoq so‘zi o‘rnida ko‘chma ma’noda qo‘llangan.

“Olisdagi Dilnura” hikoyasida: “- Qanday g‘uborsiz odam edi-a, Yunus tog‘a... - ayol telefonda “piq-piq” yig‘lab yubordi.” Bu parchadagi “g‘uborsiz” so‘zi insonning dilida g‘arazligi yo‘qligidan dalolat berib, ko‘chma ma’noda ishlatilgan.

Ko‘chma ma’noli so‘zlar, asosan, nutqni boyitadi, voqeani yanada ochiqglashtiradi. Kitobxon yanada obrazli tasavvurga ega bo‘ladi.

Har bir asarda muayyan darajada ijodkorning shaxsi aks etadi. Ulug‘bek Hamdamning uslubi uning voqelikka yondashishi, davr va undagi insonlar o‘zgarishlarini tasvirlashi, jumalarni tuzishida ko‘rinadi. U o‘ziga xos uslubga ega. “Yozuvchining talant kuchi, diqqati, butun borlig‘i bir markazga to‘planadi; bo‘lajak qahramonlar aniqlanadi. Asarning asosiy poetik g‘oyasi, uning obrazli ifodalanishi ko‘zga tashlanadi va shu doira atrofida obrazlar harakat qila boshlaydilar. Xarakterlar tasviri, ular hatti-harakatlari va psixologiyalarini asoslahning yo‘llari, fabula rivojining juda ko‘p variantlaridan eng ma‘quli tanlanadi”<sup>66</sup>.

Ulug‘bek Hamdam kitobxon uchun asar g‘oyasi, mavzusi, obrazlar tizimi, syujeti, kompozitsiyasi, tili va boshqa usullarni miyasida yaxshi pishiradi. U hikoyalari orqali kimnidir “ochadi”. To‘g‘ridan-to‘g‘ri hayotdan ko‘chirish yo‘lidan bormaydi. Uni poetik til bilan boyitadi. Zero, asar oz vaqt ichida yozilsa-da, u uzoq vaqt hayotiy tajribalar va kuzatishlar natijasi bo‘lishi mumkin. Masalan, “Yaxshi odamlar” hikoyasidagi voqealar ham hayotdan shundayligicha olinib, tasvirlanmaydi. Uni o‘z ichki olami bilan kuzatadi, tuzatadi, aql va ko‘ngli orqali sintez qiladi. Unda Adolat va Ibrohimlarning farzandlariga vrach yurak kasalligi tashxisini qo‘yadi. Bu kasallik davosi uchun katta miqdordagi pul kerak bo‘ladi. Ibrohim atrofidagi insonlar – Tolib akasi, Sotim – do‘stining unga munosabatidan keyin insonlardagi insofsizlikdan, bemehrlikdan jahli chiqadi. Dunyoni go‘yoki shunday insonlar bosib olgandek tuyuladi, nazarida. Ammo mashina ustalari unga insoniylik hali ham yashayotganligini, yaxshi insonlar har doim bo‘lganligini isbotlashadi. Olamda moddiyat birinchi o‘rinda turmasligini namoyon qilishadi. Biz qisqagina mazmuni bilan tanishtirgan hikoya bizni hayotga munosabatimiz haqida o‘ylovga chorlaydi. Yozuvchining ba’zi hikoyalari hayotga muhabbatni oshirsa, ba’zilari odam va olam orasidagi munosabatlar haqida fikrlashga undaydi.

Hikoyalardagi so‘z yelkasiga “yuk” tushgandan keyin, mas’uliyat ham oshadi.

<sup>65</sup> Хамдам У. Тўлин ой қиссаси. – Тошкент: О‘zbekiston, 2017. – Б. 215.

<sup>66</sup> Umuruv H. Adabiyot nazariyasi: Oliy O‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 58-b.

“Tashnaliklarini andak bosib, qahvaxonadan chiqishdi-yu boz kunchiqar yoqqa yuzlanishdi. Qarshilarida yana o‘sha yo‘l. Hammasi boshidan boshlangandi”<sup>67</sup>. Bu o‘rindagi “andak” va “boz” so‘zlariga e‘tiborni qaratsak. Bu so‘zlar o‘z yelkalariga “ozgina” va “yana” ma‘nolarini olib, ular o‘rnida qo‘llanyapti. “Andak” so‘zining tanlanishi so‘zlashuv uslubining inson tabiatiga yaqinligini inobatga olingan.

Adib ko‘p o‘rinlarda so‘zni tejaydi, qisqa va mazmundor holda tasvirlaydi, xulosani kitobxonga havola etadi. Yozuvchi go‘zallik yaratish vazifasini juda yaxshi uddalaydi hikoyalari orqali. Kitobxon ko‘z oldida manzara va holatlar to‘laligicha gavdalanadi. Asarlarining ko‘p qismida muallif o‘z nutqi orqali barcha narsaga: atrofga, holatga, hodisaga, tasvirga, obrazga, detalga o‘z munosabatini bildiradi, bizni ergashtiradi. “Ibrohim birdan nima qilarini bilmay, shalviradi-qoldi. Hozirgina hammasi besh qo‘ldek ayon edi: begona kishi xizmat qildi, endi bu haqini to‘lashi kerak. Yo‘q-da!.. Endi Ibrohim bir lahzaning o‘zida fikrini o‘zgartirishi kerak bo‘p turibdi. Hay, attang, dunyo va odamlar to‘g‘risida bir to‘xtamga kelib ulgurgandi, endi bo‘lsa... O‘sha to‘xtam chilparchin bo‘lib, oyoqlari ostiga sinib tushdi. Bir lahza...atigi shu bir lahzada Ibrohim hamma narsaga ko‘ra munosabatini qayta ko‘rib chiqishi shart endi! Eh, bularning zalvorini ko‘targuvchi pahlavon bormi olamda?..”<sup>68</sup>

Psixologik jarayonlar zamondagi voqelar hikoyada qahramonlar ruhiyati, ichki monologlar orqali ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek hikoyachiligining turli davrlarda ham qahramonlar ichki kechinmalarining guvohi bo‘lganmiz. Bugun insonlar adabiyot olamida hikoyalarda bir epizod voqealarida ruhiy kechinmalarining rang-barang qirralari ochilib bormoqda. Ушбу парчада қўлланилган shalviradi-qoldi, chilparchin, pahlavon, zalvor, lahza, besh qo‘ldek ayon kabi so‘z va iboralar qahramonning asarda tasvirlangan holatiga mos tushganligi, uning kechinmalari va o‘ziga xos olamini tasvirlashda qo‘llanilganligi bilan muhimdir. O‘y-fikrlari qahramonni shu qadar chulg‘ab olganki, u qahramon uchun og‘irlik qilmoqda, bu jarayonda u o‘zini qanday tutish fikri bilan band bo‘lmoqda, ijodkor uning shunday og‘ir vaziyatda ekanligini "zalvor" so‘zini qo‘llash bilan yanada yorqinroq aks ettirishga erishgan. Yoki bir pasda bo‘lib o‘tadigan holatlar, qisqa muddat ichida yuz berib, inson hayotiga tub burilish yasaydigan daqiqalar bo‘lishi mumkinligini ifodalashda qo‘llagan so‘zlari ahamiyatga egadir (shalviradi, qoldi, chilparchin, lahza). Shuningdek, adib hikoyalarda yuqoridagi matnda keltirilgani kabi (besh qo‘ldek ayon) **iboralardan** ham o‘z o‘rnida unumli foydalanilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Xususan, muallif hikoyalarining mutolaasiga kirishar ekanmiz, uning so‘z qo‘llash bilan bog‘liq mahorati e‘tiborni tortadi. Ijodkor so‘zni tejab, birgina jumla mag‘ziga ko‘plab ma‘nolarni singdirishga harakat qiladi. Adib, asosan, xalqimizning qadimdan ishlatib kelayotgan ammo bugungi kunda iste‘molda kam qo‘llaniladigan so‘zlardan unumli foydalanadi. Misol uchun “To‘lin oy qissasi” nomli asardagi hikoyalarda ayrim jumlar keltirilganki, ular ayni damda so‘zlashuv uslubida kam ishlatiladi. “Tashnalik jon-jonimdan o‘tganda yo‘l uzog‘i chayqalib-jimirlab, **halqob-halqob** suvga aylanadi:” yoki “**Xushxon**

<sup>67</sup> Хамдам У. Тўлин ой қиссаси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2017. – B.-146.

<sup>68</sup> Хамдам У. Тўлин ой қиссаси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2017. – 136-b

va **maston** davralarni aylanib o‘tarkanman, og‘zimning suvi qochdi.” “Shu ko‘yi sahnada o‘tirganlaru navbatda tik turganlarga **azmoyishla** qarayman: “saro-o-o-b” deyman-u, iztirob bilan tamshanaman.” “Shuncha boshqa ulov turganda, **almisoqdan** qolgan aravaga nima bor?“ (“Vatan haqida qoshiq”) <sup>69</sup> kabi so‘zlardan shunchaki foydalanmay, tilda iste’molda **kam ishlatiladigan so‘zlardan** oqilona foydalanib, inson ruhiyatini yanada yaqqol ochishga yordam bergan va xalqimizning qadimiy e’tiqodiy qarashlari bilan uyg‘un holda asarda o‘ziga xos vazifa bajaradi.

Ulug‘bek Hamdam qahramonlarning ruhiy ahvoli, psixik kayfiyatlari, kechinma va histuyg‘ularini ifodalashda, asosan, ularning o‘z nutqlaridan foydalanadi. Ya’ni personajlar nutqi orqali ular o‘z-o‘zini namoyon etadi. Ularning gap-so‘zlari orqali, **ichki monoglari** ularning qanday inson ekanligi namoyon bo‘ladi: “Yovga taslim bo‘lgandan ko‘ra duhman qilichidan o‘lib, ozod bo‘lishni Afzal bilaman!..Men jonimni taklif qilib keldim, hukmdorim! Axir Vatan qo‘ldan ketar ekan,jonni nima qilaman!.. Men Vatanimni boshqacha yaxshi ko‘rolmaayman!..”<sup>70</sup> Asardagi temirchi tilidan aytilgan ushbu so‘zlar orqali uning mardligi, taqdir zarbalaridan qo‘rqmasligi, kelajakka ulkan ishonch bilan qarashi ayonlashadi.

“Ma’lumki, realist yozuvchi hayotning quruq nusxasini ko‘chirish bilan shug‘ullanmaydi, balki hayotiy materialni qayta ishlab,uni g‘oyasi va iste’dodi ,mahorati va tajribasi bilan boyitib,umumlashma obraz holiga keltiradi. Mana shu vazifani bajarish uchun yozuvchi umumxalq tilida mavjud bo‘lgan hamma shevalardan, turli-tuman til qatlamlarining barchasidan tasviriy vosita tarzida foydalanishi mumkin.Tilda yozuvchi uchun taqiqlangan soha yo‘q”<sup>71</sup>.Ulug‘bek Hamdam hikoyalarida badiiy asar tili shakl va mazmunga, syujetga, obrazlar talqiniga ta’sir ko‘rsatmay tasvirlangan ya’ni shakl va mazmun birligini ta’minlagan. Qahramonlarning ichki dunyolari va xarakterlari ularning **monolog** va **dialog**laridagi nutqlarida ochiladi. Bu yozuvchidan katta mahorat va iste’dod, saviya talab qiladi. Kitobxon uchun oddiy tuyulgan voqea, hodisa va muloqotlar o‘ziga xos tilda erkin so‘zlatilganki, ijodkor bu uchun qancha mehnat va izlanish sarf etgan,undan katta mas’uliyat talab qilgan. Haqiqiy so‘z egasigina qahramon psixologiyasini uning nutqidagi nozik so‘zlarni qo‘llash orqali ochadi. ”Musulmon”hikoyasidagi ushbu parchaga diqqatni qaratsak:

“...Qariyani ariq yoqasida o‘sgan o‘rik daraxti poyiga avaylab yotqizishdi.

– Voy-bo‘o‘! – xitob qilib yubordi Hasan uzatilganda yon tomonga ikki buklam bo‘p qolgan oyoqqa ko‘zi tushib. – Yomon sinibdi-yu!..

– Mayli, yigitlar, sizlar masjidga qaytaveringlar, baraka topinglar, – qariya uzalib, sinib qiyshaygan oyog‘ini to‘g‘rilab qo‘ydi. Bu bilan go‘yo o‘tgan- ketganning ko‘zi tushib qo‘rqmasin demoqchi edi.

<sup>69</sup> Хамдам У. Тўлин ой қиссаси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2017.

<sup>70</sup> Хамдам У. Тўлин ой қиссаси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2017. – B.36

<sup>71</sup> Adabiyot nazariyasi.1-tom.T.”O‘zbekiston SSR “Fan”nashriyoti,1978. –B. 348.

– Nimalar deyapsiz, amaki, bu ahvolda sizni tashlab ketib bo‘ladimi? – Husan olazarak yo‘lga boqdi.

– Yo‘q, bolam, meni deb namozdan qolmanglar, singan sindi endi, qaytarib bo‘lmaydi, – dedi-yu yoshullining rangi o‘chib, lablari gezardi-da, asta boshini ajriqqa qo‘ydi.

Havoda azon saslari yangradi...

– Yur, Husan, namoz boshlanib qoldi, – yana hov boyagidek sherigining yengidan masjid tomon tortdi Hasan. – Hali majlisga borish kerak. Amakiga boshqalar yordam berar endi, a?

– O‘ylab gapiryapsanmi? Ko‘ryapsanmi holini, hushidan ketib boryapti, mashina to‘s, kasalxonaga tez yetkazish kerak... – Husan ariqdagi bo‘tana suvga dastro‘molini ho‘llab yoshullining yuziga bosdi. – Hozir, amaki, hozir, ozgina sabr qiling...

Allohu akbar, Allohu akbar, Allohu akbar, Allohu akbar...

Ashhadu anla ilaha illalloh, ashhadu anna Muhammadar Rasululloh...

– Namoz boshlanib qoldi, Husan! – toqatsizlandi Hasan. – Namoooz!..

– Hasan, qara amakini... hushini yo‘qotdi...

– Namoz deyapman men senga, Husaan! – baqirdi Hasan, – Iymoningni boy berma!..

– Agar o‘laman deb yotgan shu kishiga hozir yordam bermasam, iymonimni aniq boy beraman, Hasan!.. – ovozini ko‘tardi Husan ham. – O‘zingni o‘tga, cho‘qqa urganing bilan iymon Allohdan! U bersa, bor, bermasa, yo‘q ekan, tushundingmi!..

– Kofir bo‘lma! Yur namozga! Iymonimizni saqlab qolaylik!..

– O‘zing kofir bo‘lma! Yur, anavi kishining jonini saqlab qolaylik!..

– Shayx hazratlari aytadiki... – so‘zlari og‘zida qoldi Hasanning.

– Shayx hazratlarini qo‘y, Husan, sen o‘zing nima deysan, shuni gapir! Qachon sen Hasanning gapini aytasan?!.. – bo‘g‘ildi Husan. – Birovning iymoni bilan yashash mumkinmi?.. Tavba... qarab tursam, sening musulmonliging masjidning ichidagina bor, darvoza hatlab tashqariga chiqishing bilan kimligingni bilib bo‘lmaydi, Hasan!..

– Og‘zingga qarab gapir, Husan!.. – asabiy qichqirdi Hasan...<sup>72</sup>.

Parchada uch xil xarakterdagi qahramonning suhbatlari orqali yozuvchining til boyligini ko‘rish mumkin. Hikoyani to‘liq o‘qigan qahramon hikoyaning bu qismini juda jiddiy tarzda va qiziqish bilan o‘qiydi. Shu parchani Husan va Hasanning suhbat cho‘qqisi desak bo‘ladi. Sun‘iylikdan, balandparvozlilikdan voz kechgan qahramonlar tili kitobxonni o‘ziga jalb qiladi.

“Voy-bo‘o‘!”, “baraka topinglar”, “singan sindi endi”, “yoshullining rangi o‘chib, lablari gezardi-da, asta boshini ajriqqa qo‘ydi”, “ariqdagi bo‘tana suv” kabi **so‘z, ibora, jumalarda** qahramonlarning o‘ziga xos tabiati, milliy xususiyatlari, ruhiyati, xarakteri, umuman olganda, individual jihatlarini yaqqol namoyon bo‘ladi. Yozuvchi ularning har biriga xos bo‘lgan nutqni yaratadi va so‘zlarni topib tanlab ishlatadi. Bunday xususiyatlar ijodkorning badiiy obraz yaratish va uning nutqini individuallashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan mahoratini namoyon etadi.

<sup>72</sup> U.Hamdam. “Musulmon” <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/3507-musulmon-hikoya-ulug%25CA%25BBbek-hamdam>

Ulug‘bek Hamdam hikoyalarini yozishda jonli xalq tili, o‘z davri kundalik turmushida faol qo‘llanadigan barchaga tushunarli so‘zlashuv nutqi leksikasidan unumli foydalanadi. Yozuvchi asar leksikasiga e‘tibor berilsa, hikoya janrining o‘ziga xos namunalarini yaratdi. Imkoni boricha o‘zbek leksikasining xalq orasida so‘zlashuv nutqiga xos ko‘rinishlarini ko‘proq ishlatishga harakat qilgan. Har bir yozilajak hikoya mazmun-mohiyati, uning asosiy maqsadi, fikr-mulohazalari nimadan iboratligiga qarab, soha tili unsurlaridan foydalangan. Tilning lug‘at boyligidan unumli foydalanib, so‘z qadrini oshirishga xizmat qilgan. Yozuvchi lug‘at boyligi kambag‘al bo‘lsa, fikr igodasi ham qashshoq bo‘ladi. So‘zlarni o‘rinsiz va ko‘p takror va nojoiz qo‘llash so‘z ma‘nolarini yaxshi anglamasligimizga olib keladi. Nutq lug‘atining boyligi esa fikr va tuyg‘ular ifodasini mukammal, to‘g‘ri va aniq, o‘z o‘rnida qo‘llash imkonini beradi. Buning uchun o‘zbek tili imkoniyatlari keng. Ulardan oqilona foydalana olgan yozuvchigina o‘z maqsadiga yetadi. Ulug‘bek Hamdam muallif nutqini ham, qahramon nutqini ham o‘z o‘rnida qo‘llay oladi. Hikoyalardagi voqea, voqea sodir bo‘layotgan joy, qahramonlarga berilayotgan ta‘rif, muallifning fikr-mulohazalari muallif nutqidan beriladi. Adabiy til normalariga yaqinlashadi, ammo bu degani barcha o‘rinlarda ham to‘la muvofiq deb bo‘lmaydi. Chunki xalqona tilda yozmaslik ham hikoya qadrini oshirmaydi. Qaysi ijtimoiy tabaqa haqida gapirmasin ijodkor, hikoyada so‘z kuchini anglash mumkin. Hikoyalarning o‘xshatish va tasviriy vositalarga boy bo‘lishi bilan ijodkor til imkoniyatlari anglashiladi.

#### **Xulosa**

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, yozuvchi har bir hikoyasini kitobxon qalbidan o‘rin egallashi uchun bor til boyliklidan foydalangan. Ramziy tasvirlar, falsafiy tushunchalar shunchaki hikoya qilinmaydi. Ular psixologik tahlil qilinadi, turfa taqdirlar tahlil qilinadi va qahramonlar ichki ruhiy holati go‘zal tasvirlar orqali aks ettiriladi. Adib hikoyalari ta‘sirchan bo‘lib, kitobxonlar ma‘naviy dunyosini o‘zgartiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. U.Hamdam. "Musulmon" <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/3507-musulmon-hikoya-ulug%25CA%25BBbek-hamdam>
2. Хамдам У. Тўлин ой қиссаси. – Тошкент: О‘zbekiston, 2017. – 36-b.
3. Adabiyot nazariyasi. 1-tom. T. "O‘zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1978. – 348-b
4. Abdusamiev H. Yozuvchi mahorati haqida ayrim mulohazalar. – S.: 2008.